XALQ DEPUTATLARI KO‘KDALA TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2023 - yil 9 - avgust VI-13-55-4-224-K/23 Ko'kdala tuman hokimligi

Ko‘kdala tuman mahalliy budjetining 2023-yil II -chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘larni yo‘naltirish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi “Budjet kodeksi”ning 126-moddasiga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-mart “Xotin-qizlarni qo‘llabquvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-5020-son qarori, 2021-yil 13-aprel “Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-5072-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 11-mart “Yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 132-son qarorining ijrosini taminlash maqsadida tuman mahalliy budjetining 2023-yil II-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘larni yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflarini ko‘rib chiqib, Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari tomonidan bildirilgan takliflar, fikr va mulohazalarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6 va 24-moddasiga asosan, Xalq deputatlari Ko‘kdala tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1.Tuman hokimligining tuman mahalliy budjetining 2023-yil II-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘larni yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2.Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (I.Muxammadiyev) tuman mahalliy budjetining 2023-yil II-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan “Yoshlar daftari” jamg‘armasiga 15 foiz, “Ayollar daftari” jamg‘armasiga 15 foiz, “Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasiga 30 foiz mablag‘lar tuman hokimligida ochilgan tegishli jamg‘armalarning maxsus hisob raqamlariga ajratilishini ta`minlasin.

3.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (B.Do‘stov) hamda tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (I.Muxammadiyev)lar;

-belgilangan muddatlarda mazkur qarorda ko‘zda tutilgan tadbirlarni o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlash maqsadida tegishliligi bo‘yicha mablag‘larni moliyalashtirish choralarini ko‘rish,

-O‘zbekiston Respublikasining “2023 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksi talablariga asosan tuman mahalliy budjetining xarajatlar qismiga belgilangan tartibda tegishli o‘zgartirishlar kiritish,

-ajratilgan maqsadli mablag‘larni o‘z vaqtida va samarali ishlatilishi yuzasidan moliyaviy hisobotlar asosida tizimli o‘rganishlar o‘tkazish, o‘tkazilgan o‘rganishlar natijalariga ko‘ra, ishlatilmasdan qolgan va iqtisod qilingan mablag‘larni tuman mahalliy budjetiga qaytarish choralarini ko‘rish vazifalari yuklatilsin.

4.Tuman hokimligi, tegishli tashkilot rahbarlari va mas’ul xodimlariga,

-mazkur qarorda ko‘zda tutilgan mablag‘lardan o‘z vaqtida belgilangan tartiblar asosida maqsadga muvofiq foydalansinlar.

5.Tuman G‘aznachilik bo‘linmasi boshlig‘i (X.Ruziev) ajratiladigan mablag‘lar bo‘yicha shartnomalarni o‘z vaqtida ro‘yxatdan o‘tkazish va xarajatlarni belgilangan tartibda amalga oshirilishini ta’minlasin.

6.Xalq deputatlari tuman Kengashning deputatlari tuman hokimligi bilan birgalikda qo‘shimcha manbalarning 30 foizidan kam bo‘lmagan miqdorini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarga yo‘naltirilishi bo‘yicha “Ochiq budjet” tizimi to‘g‘risida aholini xabardor qilish va ularning ushbu tadbirlarda faol ishtirokini ta’minlash maqsadida joylarda tushuntirish va targ‘ibot ishlarini olib borsin.

7.Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Ko‘kdala tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi F.Bektemirov, hamda tuman hokimining birinchi o’rinbosari B.Do‘stovlar zimmalariga yuklatilsin.

8.Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **X.Djurayev**